

**QADIMIY KUYLAR VA ULARNI TASHKIL ETUVCHI QISMLAR****Xuramov Ulug'bek Karimjonovich***Termiz davlat pedagogika instituti, musiqiy ta'lim kafedrasini mudiri*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada qadimiy ayniqsa O'rta Osiyo xalqlarining musiqiy madaniyati tarixi, kuylar va ularni tashkil etuvchi qismlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa mutafakkir olimlarning fikrlari, ilmiy izlanishlari keltirilgan. Ushbu maqola orqali musiqa asarlar tahlili haqida yetarlicha ma'lumot olish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Alhon, sarxona, miyonxona, bozgo'y, mustahal, alhoni mulazza, alhoni muhayyila, alhoni infioliyya, alhoni jimriy, alhoni basitiy, alhoni xattiy, kor, qavl, amal, peshrav, oviza, savt, rixta, saj, zarbayn.*

Hozirgi kundagi musiqachi-pedagog har tomonlama rivojlangan uddaburon, mustaqil izlanishlar olib borish qobiliyatiga ega, ayniqsa turli davr hamda turli kompozitorlarning asarlarini tahlil qila olish, umumiy xulosalar qilish qobiliyatini shakllantirish, umuman olganda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish shart va zarur. Chunki hozirgi vaqtgacha musiqa san'ati, musiqa pedagogikasi o'zining tadrijiy rivojlanish davrlarini bosib o'tdi. Ma'lum bir shakllar, janrlar rivojlanib taraqqiy etdi. Ba'zilari kompozitorlarning ijodiy faoliyatida iste'moldan chiqdi, unutildi. Bu boradagi ma'lumotlar esa yetarli emas. Mavjud adabiyotlar ham kam tadqiq etilgan, bir so'z bilan aytganda musiqiy asarlar tahlili nuqtai nazari haqidagi umumiy bilimlar yetarli darajada emas. Aynan musiqiy asarlar tahlilini o'rganish bilan yosh musiqachi-pedagog musiqiy merosimiz borasidagi tasavvur va qarashlari boyib, kengayib boradi. Buning uchun bor adabiyotlarni chuqur o'rgangan holda kasbiy faoliyatga tadbiq etib o'zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kuylarning turlari va shakllari masalasi al-Forobiy zamonidan boshlab XVIII asrlargacha yozilgan musiqa risolalarida yoritilib kelindi. Bu masala musiqa asarlarining, shu jumladan, maqom turkumlarining ham rivojlanishi va takomillanishida hal etuvchi rol o'ynaydi. Shashmaqomning yuzaga kelishiga va shakllanishiga ham bu masala bevosita aloqadordir. "Kuy va ashula shakllari" deyilganda O'rta Osiyo va Xuroson xalqlari musiqa madaniyatida bastakorlik an'analari masalalari tushunilishi kerak. Musiqa asarlari – kuy va ashula yo'llari o'tmish olimlari yaratgan nazariy risolalarda "Alhon" (arabcha "lahn" so'zining ko'pligi) iborasi bilan ataladi. Kavkabiyning yozishicha, agar bir necha kuy tuzilmalarida sarxona, miyonxona va bozgo'y kabi unsurlar bo'lib, unga ma'lum o'lchovdagi she'r asos qilib olingan bo'lsa, alhon hisoblanadi. Darvish Alining aytishicha, alhon cholg'u muqaddima (mustahal) bilan boshlanadigan ashuladir. Unda o'rta registrda ijro etiladigan miyonxona va qaytarma qism bozgo'y bo'lishi shart. Alhon hozirgi shashmaqomda ham uchraydigan taronalarning yirikroq shaklidir. Yozma manbalarda alhoni tarona ham uchraydi. Bu tarona shaklidagi alhondir. X – XIII asrlarda alhon turlari uch xil, deb ko'rsatilgan.

Alhoni mulazza (lazzatbaxsh alhon). Bunday musiqa asarlari go'zallikni ifodalaydi, inson kayfiyatini ko'taruvchi ta'sir kuchiga egadir.

Alhoni muhayyila – hayoliy musiqaviy, tasviriy xarakterdagi asarlar. Hozirgi zamon musiqasidagi “fantaziya” xarakteridagi asarlar tushunilmasligi kerak. Bu yerda kishini hayolga cho'mdirib qo'yadigan va kuchli tasviriy kuchga ega bo'lgan kuy va ashulalar ko'zda tutiladi. Unda tabiat, jonivorlar tasvirlanadi.

Alhoni infioliyya (g'amgin kuylar). Kishiga g'amgin kayfiyat bag'ishlaydi.

O'rta asr musiqa manbalarida keltirilgan alhonni bu turlariga oid faktlar umuman Sharq xalqlarida mavjud bo'lgan musiqa asarlarining xususiyatlarini ifodalaydi.

Alhonning bunday turlari o'zbek-tojik xalqlari musiqasida, ayniqsa, maqom yo'llarida ham ko'p uchraydi.

Bizgacha yetib kelgan xalq musiqa asarlari To'rg'ay, Suvoriy, Sarbozcha kabilarda to'rg'ayning uchishi, otliq kishi va askarlarning yurishidagi harakati tasvirlanadi. Rak sho'basining nomini ham Suvoriyning arabcha ifodasi, deb aytish mumkin. Bunday musiqa asarlari “Alhoni muhayyila”ning bizning kungacha yetib kelgan turlaridandir. Ayniqsa xalq orasida mashhur bo'lgan dostonlarda, xalq qo'shiqlarida turna, qarg'a, ot va boshqa jonivorlar hamda tabiat manzaralarining go'zal tasvirlanishi buning dalilidir.

So'nggi vaqtlarda yaratilgan va xalq orasida mashhur bo'lib ketgan ajoyib qo'shiqning kichik bir qismini olaylik. Bunda so'z bilan ohang bahordagi tabiat manzaralarini, hayvonot dunyosini tasvirlaydi:

XV asr O'rta va Xuroson xalqlari musiqa madaniyatida maqom turkumlarining taraqqiy etishida alohida rol o'ynadi. Bu davrda adabiyot, san'at taraqqiy etdi. Musiqa sohasida ko'plab nazariyachi-olimlar, bastakorlar yetishib chiqdi. Lekin bu davrdagi kuy va ashular turi va shakllarini yoritib beradigan, bu haqda maxsus yozilgan asarlar bizgacha yetib kelmagan.

XV asrdagi musiqa madaniyatini yoritib berishda va o'sha davrdagi kuy va ashular turi va shakllarini qisman bo'lsa-da, tasavvur etishda musiqaga bevosita aloqasi bo'lmagan manbalar alohida ahamiyatga ega. Ular tarixiy, adabiy xarakterdagi asarlar bo'lib, bunday manbalarda ba'zan musiqachi-bastakorlar, sozandalar nomi uchraydi, xonlarning saroylaridagi bazm, o'yin-kulgular, bayramlarda va xalq sayillarida ijro etilgan ashula va o'yinlar haqida gapiriladi. XV asrda ko'plab shoirlar, musiqachilar va umuman san'at ahllari yetishib chiqdi va ularga Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy homiylik qildi. Bu davrda yaratilgan devonlar, bayozlarning musiqa madaniyatida ham ahamiyati katta. Bu to'plamlar musiqachi-bastakorlar va hofizlar uchun qo'llanma kitob sanalib, ulardan ashular va maqomlar uchun she'r so'zlari tanlab olinardi. XV asrda ijro etilgan ashula so'zlarining mazmuni haqida ham tasavvur etishimiz mumkin.

Hofizlar shashmaqom va xalq ashularini ijro etishda hozirda ham shunday so'zlardan foydalanib keladilar. Shunday ekan, XV asrda ijro etildan musiqa asarlari bilan ularning bizgacha yetib kelgan shakllari orasida ma'lum munosabat bor, deb o'ylash mumkin.

O'рта Osiyo xalqlari madaniy hayotida tazkiralarning roli juda katta bo'lgan. Tazkiralarda asosan shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilsa-da, qisman ularning musiqa sohasida olib brogan ishlari ham eslatib o'tilardi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro", Kamol Husayniyning "Majolisul-ushshoq", Navoiyning "Majolisun-nafois" asarlari shular jumlasidandir.

Tazkiralalar orasida Navoiyning asari xarakterli bo'lib, unda san'at ahllari haqida ishonchli faktlar keltiriladi. Navoiy bu tazkirada musianing nazariy ham amaliy jihatlaridan xabardor bo'lgan shoirlarni maqtaydi. Chunki u aruz san'atini egallashda, shoirdagi estetik hisni tarbiyalashda musiqa ilmining katta ahamiyatga egaligini yaxshi bilardi.

Navoiy tarbiyalagan shoirlarning ko'pi musiqachi, musiqachilar esa shoir ham edilar. Manbalaardan ma'lum bo'lishicha, musiqa poeziya bilan bog'li holda uning taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. She'r o'lchovi asoslari va qoidalarini egallashda musiqaning ritmik asosi hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuning uchun ham ba'zi olimlar aruz ilmi musiqa nazariyasi asosida yuzaga kelganligini uqtirib o'tganlar. Navoiy "Majolisun-nafois"ida she'r vazilarini buzib yozgan shoirlarni tanqid qilarkan, musiqa ilmida ularning iste'dodi yo'qligini ko'zda tutadi.

Navoiyning o'zi musiqa va uning amaliy tomonlaridan xabardor bo'lgan holda maqom yo'llariga ko'pgina naqsh, peshrav, amallar bog'lagan bastakor ham edi. Uning she'rlari musiqiy va ravon bo'lganligi va musiqaga o'ng'ay tushishiga ham sabab Navoiyning musiqachi-bastakor bo'lganligi edi.

Musiqachilarni tarbiyalash maqsadida Navoiy ko'pgina olimlarga aruz vazni va musiqa haqida risolalar yozishni tavsiya etgan edi. Natijada Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" (Navoiy o'zining Jomiyga bag'ishlangan "Xamsatun-mutaxiyyirin" asarida bir necha olimlarga, shu jumladan, Abdurahmon Jomiyga ham musiqa risolasi yozib berishni iltimos qilgani haqida gap boradi), Zaynulobidin al-Husayniyning "Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy" kabi asarlari yaratildi.

Navoiy o'zining "Majolisun-nafois" tazkirasida musiqa va advor (musiqa va ritm doiralari) ilmida risolalar yaratgan ko'pgina olimlarni eslatib o'tadi. Xo'ja Abdulvafoyi Xorazmiy (XV asr), Mavlono Alishoh, Muhammad Jomiy (A.Jomiyning ukasi), Binoiy, Muhammad Ali G'aribiy, Mavlono Shayxiy, Pahlavon Muhammad, Amir Murtoz, Xo'ja Shahobiddin Marvorid va boshqa olimlar o'z zamonasining shunday yetuk musiqa nazariyachilaridan edi.

XV asr, Navoiyning ko'rsatishicha, Xo'ja Yusuf Burhon, Hofizi Sharbatiy, Xo'ja Kamoliddin Husayn, Ustod Qul Muhammad Udiy, Xo'ja Abdulloh Sadriyi Qonuniy, Mir Habibullo Udiy, Shayxi Noyi, Ustod Qutbi Noyi, Husayn Udiy, Ustod Shodiy kabi o'nlab musiqachi-bastakorlarni yetkazib berdi. Bu bastakorlar maqomlarga naqshlar, peshravlar va amallar bog'ladilar hamda maqom janrining rivojlanishida va takomillanishida hal etuvchi rol o'ynadilar.

Umuman XV asr musiqachi bastakorlari va olimlari O'rta Osiyo va Xurosonda musiqaviy-estetik qarashlarni so'nggi davrlardagi rivojiga asos yaratib berdilar. Musiqaning bu davridagi nazariy va amaliy an'alarini keying asrlarda yashab ijod etgan musiqachi-bastakorlar davom ettirdi.

Bastakorlar ijodini Navoiydan tashqari, ko'pgina tazkirachilar, tarixchilar, olimlar o'z asarlarida turli darajada yoritib berganlar. Bu olimlarning asarlarida shoir yoki musiqachi-bastakorlar haqida ma'lumot berilgan, faqatgina ularni turli maqomlarga naqsh, peshrav, savt va amallar bog'lagan mohir san'atkor, deb ko'rsatiladi. Bu faktlar Boburning "Boburnoma" sida, Vpsifiyning "Badoeul vaqoe" asarida va ko'pgina tarixiy asarlarda hamda tazkiralarda o'z ifodasini topgan.

Bastakorlik san'ati ayniqsa XVII asr mashhur musiqa olimi Darvish Ali Changiyning "Risolai musiqiy" asarida nisbatan ishonarli qilib yoritilgan. Bu asarning VII – XII boblari musiqachilar, shoirlar va olimlarning biografiyasiga taalluqli bo'lib, bunda juda katta ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan faktlar, epizodlar keltiriladi. Bu epizodlar O'rta Osiyodagi bastakorlik va kuy, ashulalar turi hamda shakli haqida qimmatli material beradi. Shuni ham uqtirib o'tish kerakki, har qancha aniq izoh bilan ta'riflanganda ham XV – XVII asarlarda ijro etilgan musiqa asarlarini tom ma'nodagi nota yozuvi bo'lmagandan keyin, aniq tasavvur etish mushkul narsa. Lekin bizgacha kelgan shashmaqom vositasi bilan o'sha davrlardagi risolalarda aks ettirilgan kuy va ashulalar qiyofasini ham nisbatan tasavvur etish mumkin. Chunki XV – XVII asrlar maqom janrining takomillashishida va Shashmaqomning shakllanish jarayonida poydevor yaratib berdi va bu sohada hal qiluvchi rol o'ynadi.

XVI – XVII asrlarda yashagan buxorolik musiqachi-olimlarida kuy va ashula turlari va shakllari masalasiga alohida boblar ajratilgan. Umuman Navoiy, Bobur, Mavlono Kavkabiyy va Darvish Ali kabi shoir ham olimlarning asarlari naqsh, peshrav, amal, savt, singari kuy shakllarini mavhumroq bo'lsada, tasavvur etishga yordam beradi. Bunday kuy shakllarini ifodalovchi asosiy qismlari hozirgi vaqtda maqom yo'llarida mavjud bo'lsa-da, ko'pchilik atamalar iste'moldan chiqib ketgan.

Kavkabiyyning ko'rsatishicha, alhon (kuy, ashula) uch xil bo'ladi:

Alhoniyy jimriy (to'liq kuy), ya'ni musiqa tovushi (nag'ma), doyra usuli (ritm) va she'r teksti qo'shilgan musiqa asari bu – vokal musiqadir;

Alhoni basitiy (oddiy kuy), ya'ni cholg'u kuylar yoki she'rni o'lchovga solib o'qish;

Alhoniyy xattiy (cheklangan kuy), ya'ni musiqa asaridagi tovushlar, doyra usuli va she'rning musiqasiz ko'rinishi. Musiqa asarlarining bu turlari haqida manbalarda mufassal ma'lumot yo'q.

Hozirgi kunda bu masalalarni aniq tasavvur etish qiyin. Lekin o'tmishda musiqa nazariyasi mualliflari lad uyushmalarini, badiiy she'r o'qishni, doyra usulini, hatto qur'on o'qishni ham alhon tushunchasiga kirita berganlar. Bu hol esa alhonning yuqoridagi uch xilimi ta'riflashda ham o'z aksini topgan.

Kavkabiyy va Darvish Ali o'z risolalarida kuylarning ishlanish uslublarini va shakllari haqida ham mulohaza yuritganlar. Bunda kor, qavl, amal, peshrav, savt, naqsh, rixta, saj, zarbayn kabi terminlar kuy yoki ashulalarning qismlarini, ba'zilar esa kuyning tuzilish uslublarini ifodalab beradi. Kuy kichik bir o'zgarish kiritilishi bilan boshqa shaklga kirib, uning nomlanishi ham o'zgaradi. Shunday iboralardan biri kor deb ataladi.

Kor (forscha – ish, yaratish) avtorlar ta'rificha, arab tilidagi she'rlar bilan hafif o'lchovi doyra usulida ijro etiladigan ashula yo'lidir. Ashula boshida mustahal (cholg'u musiqa, vokal musiqaning cholg'u muqaddimasi) muqaddima qilinadi. Korning miyonxona va bozgo'yi ham bo'ladi.

Musiqaga bag'ishlangan kitoblarda ko'rsatilishicha, ashula baytlaridan (she'r o'qilishidan) avval chalinadigan kuylar (motiv) mustahaldir. Ana shunday motiv baytlar o'qilgandan so'ng voqe bo'lsa, uni naqarot deyiladi. Agar ikki bayt ashula shunday tartibda kelsa, du sarxona (ikki sarxona, sar – bosh, boshlanish; xona – kuy jumlasini; sarxona – ashula boshlanishidagi kuy jummalari) nomi bilan ataladi. Kavkabiyy va Darvish Alining ko'rsatishicha, ikki baytdan tuziladigan melodik shakl miyonxona (miyonxona – ashulaning o'rtasidagi kuy jummalari) deb ataladi. Miyonxonaning kuy jummalari baytlar yoki naqarot bilan ijro etilishi mumkin. Ammo kor formasida miyonxonadagi baytlar o'rniga naqarot ishlatiladi. Amal formasining bozgo'yida esa, aksincha naqarot o'rniga odatda arabcha baytlar yoki ruboiy bog'lanadi.

Qavl kor formasining saqil doyra usulidagi ritmik variatsiyasidir. Ulardagi farq shuki, kor formasida bo'lgan miyonxona qavlda ishlatilmaydi va ularning doyra usuli turlicha bo'ladi.

Amal (arabcha – ijodiy asar) ashula formasida ham baytlardan oldin “mustahal” bo'ladi. Amal formasida miyonxona bilan bozgo'y qismlari bo'lishi shart. Agar shunday kuy bo'laklari bo'lmasa, uni savtul-amal (amalning savti) deyiladi. Amalning fazilati shuki, unga har qanday usulni (ya'ni doyra usulini) bog'lash mumkin. Lekin usul bir xil bo'lishi shart. Agar ikki turli usul bog'lansa “Kor ba usul” (usuldagi kor) deyiladi. Amalning bozgo'yiga bog'langan usul – Usuli gardon, deb ataladi.

Peshrav (yuqoriga harakat etuvchi) amal qoidasi asosida ishlangan kuy shakli bo'lib, baytsiz (so'zsiz) ijro etiladi. (Peshravni cholg'u yo'llaridan, deb o'ylash mumkin. Lekin, bu yerdagi fikrlar buning aksini tasdiqlaydi.) Peshravda uch sarxona mavjud bo'lib, birinchi sarxona kuyning past qismida kelsa, miyonxona uning balandi (avji)da bo'ladi. Lekin bunday kuy o'z husni (rangi)ni yo'qotadi. Peshravdagi birinchi sarxona uch qismdan iborat bo'lib, ular tarkib, oviza va lozima nomlari bilan ataladi.

Oviza (vosita) bir tarkib (sarxonadan oldin keladigan motiv)ni boshqa kuy jummalariga bog'laydigan vositadir. Lozima esa sarxona, miyonxona yoki bozgo'y bilan birga keladigan motivdir; u hech qachon yakka holda ishlatilmaydi. Peshrav maqom, ovoz yoki sho'balar nomi bilan qo'shib ataladi. Masalan, Peshravi (maqomi) Kuchak, Peshravi (sho'bai) Hisor, Peshravi Shahnoz, Peshravi Bastai Nigor baki.

Darvish Alining fikricha, peshrav Amiri Ko'ragoniy (Temurlang bo'lsa kerak) zamonida yuzaga kelgan. Amir Temur shoir va musiqachilarni to'plab, ko'pgina baytlarga tasniflar bog'lashni buyurgan edi. Natijada musanniflar (bastakorlar) bir necha tarkiblar bog'lab, ularga ikki sarxona, miyonxona va bozgo'y ishladilar. Dastlab o'sha zamonlarda Sayful-Masir Iroq maqomiga peshrav bog'lagan edi. Bu peshravda to'rt sarxona bo'lib, Duyak (ikki – bir) usulida edi. So'ngra Ustod Muhammad Latifi Qutbi Noyi Husayniy maqomiga peshrav bog'ladi. Bu peshrav far usulida bo'lib, Peshravi mashhur, deb nomlangan edi.

Savt (tovush, ohang)<sup>2</sup> uch bayt bog'langan ashula yo'li bo'lib, unda mustahal, miyonxona va bozgo'y bo'lmaydi. Lekin zilning<sup>3</sup> ishlatilishi shart. Zil bayt va naqarotlardan keyin keladigan ashularning cholg'u jumlasidir. Demak, zil bo'lmasa, savt bo'la olmaydi. Lekin naqarot bo'lmasa ham savt bo'laveradi. Bunda naqarot o'rniga zil kabi bir necha kuy jumalari ishlatiladi. Mavlono Binoiy (XV – XVI asr) Panjgoh sho'basiga muxammas usulida ishladan savtida shunday qilgan edi.

Darvish Alining aytishicha, savt naqshga o'xshab benaqarot ishlangan bo'lib, uni naqsh yoki rang, deb nomlash lozim edi. Savt qadim zamonlarda amalning o'zi bo'lgan edi. Ustod Shodiy (XV asr) Savtni bir zil qo'shib, Amaldan ajratgan, shu bilan birga savt naqarotning o'rniga bir zil tarkib qo'shgan edi.

Ashulaning naqsh turida ruboiy (ashulaning to'rt jumlasiga) baytlar joylashtiriladi. Agar bog'lansa u naqsh deyilmaydi. Masalan, Muxammas formasiga bog'lansa, uni Sunbuliy deb ataladi.

Rixta (aralashgan, hindlarda ham – Rixta nomi bilan mashhur) shakli shuki. Bu ashulada baytlar hindcha (urdu tilida) bo'ladi. Rixta haqida bastakor va mashhur musiqa olimi Xo'ja Abdulqodir birinchi bo'lib ish olib brogan. Rixta she'rning mazmunida Muhammad payg'ambar sollallohu alayhi vasallam madhi asos bo'lib, bozgo'yida o'n ikki imom berilgan edi.

Saj (qofiyalangan proza) she'rdagi tavil bahriga o'xshab, tarkiblar Amal formasidagi kabi bir-biri bilan birlashtiriladi. Bunda ikki sarxona, miyonxona va bozgo'yi bo'ladi. She'rining mazmunida ko'pincha payg'ambar, chahoryorlar va imomlar madh etiladi. Uning usuli Hazaj bo'lib Zahiriddin Bobur Rosti Panjgoh pardasiga Saj bog'lagan edi.

Zarbayn (ikki zarbli) shaklida bir amalga ikki turli usul bog'lanadi. Bunda har bir sarxona ikki usulda, agar bayt bilan o'qiladigan motivlar bir usulda bo'lsa, naqarot boshqa usulda bo'ladi.

Xo'ja Abdulqodir Marog'iy Zarbaynning Baytlarini (bayt bilan ashula qilib ijro etiladigan qismi) Hafif, naqarotini Duyak usulida va bozgo'yini esa o'n uch xil usulga moslab, o'n uch kuchak deb nomlagan edi. Qisqacha aytganda, agar Sarxona Amal shakli voqe bo'lsa zarbayn, deb ataladi.

<sup>2</sup> Savt shashmaqomda “aks sado”, ma'lum kuyga javob tarzida ishlangan ashula yo'lidir. Bu hol savtning asl ma'nosi keyinchalik o'zgarib ketganidan dalolat beradi. Shashmaqomdagi savtlar o'z hajmi jihatidan ham bu yerdagi ma'noga to'g'ri kelmaydi.

<sup>3</sup> Zil – koda, ashulaning tamomlanish qismidagi cholg'u matividir.

Yuqorida ko'rsatilgan kuy va ashulalarni ishlash usullari haqidagi fikrlari Mavlono Kavkabiy va Darvish Ali risolalarida mavjud bo'lib, Kavkabiya boshqacharoq formada izohlangan hamda kuy va ashulalarning boshqa shakllari ham berilgan. Masalan, Miatayn (ikki yuz), Sarband, Amali mustahal, Qavli mustahal, Navbat, Qulliyot va boshqalar.

Savt, Peshrav, Naqsh, Amal, Qavl va boshqa shakllar esa o'ziga xos usulda ta'riflangan. XVI – XVII asrlardagi musiqa amaliyoti Shashmaqom masalasiga muvofiqroq bo'lgani uchun shu davrda yaratilgan musiqa risolalaridagi kuy va ashula yo'llari haqidagi fikrlarni bu yerda qisqacha qilib keltirilgdi. Lekin bu ta'riflarni hozirgi kunda tushunarli va to'liq, deb bo'lmaydi. Darvish Ali bu masalani o'z tushunchasi doirasidagina izohlagan. Shuning uchun maqom yo'llari ko'rinishida ham bunday kuy formalarini aniq tasavvur etish mushkul. Chunki bizgacha yetib kelgan maqom yo'llari XVII asrdagi ko'rinishidan tubdan farq qilishi tabiiydir.

O'n ikki maqom bilan Shashmaqom, garchi O'rta Osiyoda mavjud umumiy an'ana va qoidalar asosida yashab kelgan bo'lsa-da, bizgacha ular juda katta o'zgarishlar bilan yetib kelgan. Maqom yo'llarining ishlash qoidalari yuqorida aytilgan kuy va ashula shakllarining ko'pida ishlatilgan nomlar hozirgi kunda musiqachi-bastakorlar tomonidan butunlar esdan chiqarib yuborilgan. Masalan, XVII asrdagi savt yo'llari bilan bizgacha yetib kelgan Shashmaqomdagi savtning ishlanish yo'li juda katta farqlarga ega bo'lishi tabiiy bir hol. Lekin birorta bastakor-sozanda savtning asl formasi haqida tasavvurga ega emas. Shunday bo'lsa-da, XV – XVII asrlarda joriy etilgan kuy shakllari va ularning nomlanishidagi iboralar maqomlargagina xosdir.

Tarixiy va adabiy xarakterdagi asarlarda, ayniqsa musiqaga doir XV – XVII asrda yozilgan risolalarda kuy va ashula shakllarining yaratilishi va ularning ijodkorlari haqida avvalgi davrlarga nisbatan boy material yetib kelganligi bejiz emas, albatta. Bu narsa hatto XIV asrdan boshlab, maqom turkumlarining rivojlanishida hal etuvchi rol o'ynagan bastakorlik an'analari yanada kuchayganida, XV – XVII asrlarda esa bu an'ana davom etibgina qolmay, bastakorlikda yangi-yangi ixtiro vositalari topilib borganidan dalolat beradi. XIV – XVIII asrlar davomida Shashmaqomning uzil-kesil shakllanib, qaror topishi uchun zamin yaratildi.

Shashmaqom esa yuqorida izohlab o'tilgan Naqsh, Peshrav, Amal, Savt, Qavl, Kor kabi kuy va ashula turlarining va ularning yaratish uslublarining yanada rivojlanishi natijasida bastakorlik an'anasining mahsuli sifatida yuzaga keldi. XVI – XVII asr musiqa risolalarida ko'plab uchraydigan xona (sarxona, miyonxona), bozgo'y, zil kabi kuy va ashula jumalari hamda doyra usullari nomlarining Shashmaqomda ham saqlanib qolganligi kuy va ashulalarning ishlanishida qandaydir bir umumiy uslub va qoidaga asoslanilganidan darak beradi.

Shashmaqom tarkibida O'n ikki maqom tizimida uchraydigan maqom va sho'ba hamda o'sha davrlarda qo'llanilgan doyra usullarining nomlari saqlanganligi, Shashmaqomning O'n ikki maqom musiqasi materiallari ba'zasida yaratilganligidan darak

berib turadi. Qadimgi manbalarda sharh etilgan kuy va ashula shakllarini Shashmaqom yo'llariga tatbiq etish, ilmiy o'rganish juda katta tarixiy, ilmiy va amliy ahamiyatga egadir. Bu masalani yechib berish o'zbek-tojik xalqlari musiqashunoslik fani oldida turgan eng yaqin va zarur vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Shunday qilib, bastakorlik an'anasi faqatgina O'n ikki maqom turkumining rivojlanishidagina emas, balki Shashmaqomning shakllanishi, paydo bo'lishi va so'nggi davrlardagi taraqqiyotida ham hal etuvchi rol o'ynadi. Shashmaqom O'n ikki maqom asosida yaratilgan, deb aytishga dalillar juda ko'pdir. Shuning uchun maqom turkumlarining bu ikki ko'rinishi orasida mavjud bo'lgan ba'zi munosabatlar haqida biroz to'xtab o'tamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
2. Y.Rajabiy. O'zbek maqomlari (shashmaqom). T.; Yunesko. 2007 yil.
3. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. T.: O'zadabiynashr. 1963 yil.
4. I.Rajabov. Maqomlar. T.: San'at. 2006 yil.
5. R.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. T.; Musiqa. 2012 yil.
6. N.Shirinskaya. Fortepiano uchun gamma va arpedjiolar. M.; Sovet kompozitori. 1980 yil.
7. X.Azimov. Fortepiano darsligi. T.; O'qituvchi. 1998 yil.
8. Z.Muhammadjonova. Fortepianoda chalishni o'rgatish uslubiyoti. T.; Yangi nashr. 2006 yil.
9. Karimjonovich K. U. et al. Sherna bakhshi's work and its place in sherobod school of friendship //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – T. 25. – №. 4. – C. 13413-13417.
10. Khurramov, U. K. "Processes of formation of performance traditions in folk instruments." *Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari* 9 (2021): 186-192.
11. Karimjonovich X. U. Important importance of elementary theory of music in the field of music education //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 200-204.
12. Khurramov U. K. FORMATION, DEVELOPMENT AND HISTORY OF HARMONY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 77-82.
13. Xuramov U. B. K. MUSIQA ASARLARIDAGI DAVRIYA TURLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 198-204.

#### INTERNET SAYTLAR:

1. <https://yuz.uz/uz/news/maqomning-mangu-mojizasi>
2. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi>
3. <https://kknews.uz/oz/19960.html>